



**TIJORAT BANKLARIDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARI
KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13119198>

Jahongirova Kumush Nurbek qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida qo'llaniladigan masofaviy bank xizmatlari tushunchasi, uning roli va o'rni, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va kamchiliklari, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishda uchraydigan ba'zi muammolar o'rganib chiqilgan va bu muammolarni hal etish uchun ba'zi amaliy taklif va tavsiyalar berilgan. O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy bank xizmatlari haqidagi barcha to'plangan statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

Digital-banking, internet-banking, mobil-banking, sms-banking.

WAYS TO IMPROVE REMOTE BANKING SERVICES IN COMMERCIAL BANKS

ABSTRACT

In this article, the concept of remote banking services used in commercial banks, its role and place, the main directions, advantages and disadvantages of the development of remote banking services, some problems encountered in the development of remote banking services are studied and these problems are solved, some practical suggestions and recommendations are given. It was analyzed on the basis of all collected statistical data about remote banking services in the practice of commercial banks of Uzbekistan.

Key words

Digital-banking, internet-banking, mobile-banking, sms-banking.

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены понятие дистанционного банковского обслуживания, используемое в коммерческих банках, его роль и место, основные направления, преимущества и недостатки развития дистанционного банковского обслуживания, некоторые проблемы, возникающие при развитии дистанционного банковского обслуживания и эти проблемы. решены некоторые практические предложения и



рекомендации. Он был проанализирован на основе всех собранных статистических данных о дистанционном банковском обслуживании в практике коммерческих банков Узбекистана.

Ключевые слова

Цифровой банкинг, интернет-банкинг, мобильный банкинг, смс-банкинг.

KIRISH

Hozirgi kunda axborot oqimining shiddat bilan oshishi, internet va axborot texnologiyalarning geometrik progressiyada rivojlanishi – turli xizmatlar va texnologiyalarni raqamlashtirish va o'zaro aloqalarni "online" rejimida tashkil etishni taqazo etmoqda. Mamlakatda oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, iqtisodiyotining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan bank tizimini raqamlashtirish, ularni zamon talabiga mos ravishda transformatsiya qilish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Shuning uchun ham tijorat banklari "Digital banking" raqamli bank tizimi doirasida o'z xizmatlarini masofadan turib, mijozlarga foydalanishga qulay bo'lgan ilovolar orqali ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanib borayotganligi, iqtisodiyotning raqamlashuvi va mijozlarning masofaviy xizmatlarga bo'lgan talablarini ortib borayotganlogidan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda bank xizmatlarining sifati va ko'lамини oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Ammo jahonda bo'layotgan o'zgarishlar, raqobatbardoshlikni haddan ziyod rivojlanishi, globallashuv jarayoni tijorat banklarining transformatsiya jarayonini yanada faollashtirish, mijozlarga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. 2018 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 3620-sonli Qarori qabul qilinishi bank xizmatlarini ko'rsatishda mavjud muammolar va banklar tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi [1].

Mavzuga oid birqancha olimlarning tadqiqot ishlari va ilmiy nazariyalari bilan yaqindan tanishib chiqildi. Xususan, Rus iqtisodchisi Lavrushin O.I. fikriga ko'ra "Uy sharoitida bank operatsiyalarini amalga oshirish elektron texnologiyalardan foydalanishga asoslangan aholiga bank xizmatlari ko'rsatishning mustaqil shakli hisoblanadi. Har bir operatsiyani boshlashdan oldin, hisob egasi tizimga noqonuniy ulanishdan himoya kodidagi kalitni oladi. Ushbu tizimdan



foydalinish joriy hisob, depozit, mijozning byudjet bilan hisob-kitoblarini, to'lov va jamg'arma hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beradi" [2]. Jarkovskaya E.P. fikricha "Bank xizmatlarini mijoz va bank xodimi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lган bank ofisida emas, balki uyda, mijozning ofisida, ya'ni ikkinchisi uchun qulay bo'lган joyda ko'rsatish kerak" [3]. Bir qator rus iqtisodchi olimlari masofaviy bank xizmati haqida o'zlarining fikrlarini aytib o'tishgan. "Masofaviy bank xizmati - bu mijozlarga turli telekommunikatsiya kanallari orqali bankka kelmasdan bank operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etishdir" deb ta'kidlaydi rus olimi Korbova G.G. [4]. Kornilova Yu.A.ning fikricha "Masofaviy bank xizmati - bu mijoz tomonidan masofadan turib (uning bankka tashrifisiz) ko'pincha kompyuter va telefon tarmoqlaridan foydalangan holda uzatiladigan buyurtmalar asosida bank xizmatlarini ko'rsatish texnologiyalari uchun umumiy atama" [5]. Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda masofaviy bank xizmati - bu bank xizmatlarini masofadan turib, bank ofisiga bormasdan, mijoz va bank xodimlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan, telekommunikatsiya kanallaridan foydalangan holda, ko'pincha mobil telefon yoki noutbukdan foydalangan holda ko'rsatish deb ta'rif berishimiz mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari xizmat turlari tahlil qilinib, masofaviy bank xizmat turlari jumladan, Bank-Mijoz , Internet-banking, SMS-banking tizimlarining ijobiyligi tomonlari to'g'risida ma'lumotlar aniqlangan. Tahlil jarayonida ilmiy abstraksiyalash, ekspert baholash, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tizimli tahlil usullaridan foydalananilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefonidan foydalinish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalinishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi.



Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan ko'chirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimdir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi:

hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;

hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;

hisobvaraq balansi;

kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda.


O'z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
1 yanvar holatiga



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni
(turlari bo'yicha)
1 yanvar holatiga



XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatishda axborot havfsizligini ta'minlash va bu borada xalqaro tajribalarni o'rghanish orqali axborot xavfsizligini ta'minlashning yangi innovatsion shakllarini qo'llash lozim deb hisoblaymiz. Xulosa qilib aytganda, "Digital bank" raqamli banking reguliyator tizimini joriy qilish va rivojlantirish orqali, tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi ortiqcha qog'ozbozlik, navbatlarda turib, ortiqcha vaqt sarflash va bank xizmat ko'rsatish sohasidagi korrupsiyaga barxam berishga olib keladi hamda buning natijasida ularning faoliyatlarini yanada yaxshilashga erishishimiz mumkin deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR/LITERATURA/REFERENCE

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 23.03.2018 yildagi PQ-3620-son
- О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева [и др.]; под ред. О. И. Лаврушина. Банковское дело: учебник - Москва: КноРус, 2016. - 800с.
- Жарковская, Е.П. Банковское дело: для студентов вузов по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / Е. П. Жарковская. - 4-е изд., перераб. и доп. - М.: Омега-Л, 2012. - 452 с.
- Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой., 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Магистр, 2015. - 592 с
- Корнилова, Ю.А. Дистанционное банковское обслуживание: обзор предложений / Ю. А. Корнилова // Экономика современного предприятия. - 2011. - № 10 - С. 48-54.
- Manba: <http://www.cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti ma'lumotlari.
- Manba: <https://lex.uz> - O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.